

Ingliz Tilidan O`Zbek Tiliga, O`Zbek Tilidan Ingliz Tiliga Tarjima Qilingan She`Rlar Bo`G`Inning Berilishi Va Ular Orasidagi Farqli Jihatlar

¹Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna

²Kayumova Mohinur Murodullayevna

³Turayeva Gulchehra Mirboboyevna

^{1,2}Teachers of "General linguistics" chair of Pedagogical faculty in Denov branch of Termez State University

³Student of Pedagogical faculty of Denov branch of Termez State University

Annotation: In this article, we will focus on the translation of two-language poetry and the various aspects of it.

Key words: poetry translation, literary translation, poetic systems, weight, nervousness, musical factors.

She`riy tarjima? Umuman tarjima ijodiy jarayon bo`lib, boshqa tilda asarni qayta yaratish san`atidir. Tillar she`riy tizimlar, vazn, bo`g`in, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi.

She`riy tarjimada asliyat va tarjima matni, ikki til she`riy sistemasi qanday bo`lishidan qat`i nazar, har bir she`r o`ziga yarasha noyob asar sanaladi. Ma`lumki, she`riyat muayyan ritmiga asoslanadi. She`riyat qonuniyatlari metrik birliklarda va ularning turli ko`rinishlarida ifodalanadi. She`riy musiqadorlik xos va ular turli xarakterga ega.

She`rda qo`llaniladigan turli san`at she`riy musiqani amalga oshirishga yo`naltirilgan bo`ladi. Shu bois har bir she`riy sistema o`z xususiyatiga, an`anaviy bo`g`inlar soniga, ritmi hamda ohangiga ega. She`riy tarjimada asarning hamma unsurlarini to`liq saqlab qolish imkoniyati yo`q, biroq ba`zi tarjimashunos olimlarning fikriga ko`ra she`rdagi obraz, she`riy hamohanglik saqlanishi lozim.

Xorijiy tillardan, xususan ingliz tilidan o`zbek tiliga bevosita tarjima qilishga talab XX asrning 90-yillaridan, ya`ni O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng kuchaydi. “Xorijiy tillardan bevosita o`zbek tilida tarjima qilish esa lug`atchilikni – leksikografiyanı rivojlantirishni taqazo etadi”.¹

Ingliz ana`naviy she`rlarini o`zbek tiliga tarjima qilishdan avval ingliz va o`zbek tillarida o`rtasidagi farqlarni yaxshi bilish lozim. Qiyoziy tipologik jihatdan yuqoridagi ikki tilni tahlil qilsak, german tillari oilasiga mansub ingliz tili hamda

¹G`ofurov I. Tarjima nazariyasi.- T., 2012. 19 b

o`rol-oltoy guruhiga tegishli turkiy tillar orasiga kiramagan o`zbek tilining she`riy sistemasidagi, agar mavjud bo`lsa, o`xshash va farq qiluvchi tomonlariga alohida e`tibor berish lozim.

Quyida ingliz tilidan o`zbek tiliga qilingan tarjimalar va ularda bo`g`inning hosil bo`lishiga quyidagi misollarni keltirib o`tamiz:

Masalan, Shotland shoiri Byornsning ruhiy holati, qalb iztiroblarini o`zbek tarjimonni Begoyim Xolbekova o`z ona tilimizda yuksak poetik mahorat bilan qayta yarata olgan.²

Biz esa ushbu she`rni bug`inlar soni jihatdan tahlil qilsak:

Asliyat:

*Louis, what reck I by thee, (5+3)
Or George on his ocean. (5+ 4)
Dyvor, beggar louns to me (1+6)
I reign in Jeanie`e bosom! (5+6)
Let her crown my love her law, (4+3)
And in her breast enthrone me; (5+4)
Kings and nationas swith awa (5+4)
Rrif randies, I disown ye! (4+4)*

Tarjimada berilishi:

*Dengiz qiroli Jorj, Lui, (6+2)
Kim bo`libdilar oldimda! (4+4)
Jiyn day aziz yorning o`yi, (4+4)
Yashab turganda qalbimda! (5+3)
Yor ko`nglining qiroliman, (4+4)
Baxtim bo`ylaydi ko`k qadar(5+3)
Mening oldimda qirollar, (5+3)
Qirolmas, yo`q- bir darbadar!(4+4)*

Yuqoridagi asliyat va tarjima jarayonidagi farqlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, she`riy asarlar tarjimasi eng murakkab masalalardan biri. Shunga qaramay tarjimonlarimiz bu zahmatli vazifani ado etishda o`ziga xos ijodiy izlanish olib borgan. Bunga ko`ra shoir va tarjimonning asarlari orasida bo`g`inlarning berilishi jihatdan biroz faqlarni kuzatishimiz mumkin. Tarjimonning ijod mahsulida shu`ni ham kuzatsak bo`ladiki, unga ko`ra undagi barcha qatordagi bo`g`inlar soni bir xil biroq ingliz tilida yozilish uslubiga ko`ra esa bo`g`inlar soni qotorlarda turlicha aks eks ettirilgan.

“Ingliz shoiri Bayronning “Shilon tutquni” asarining to`qqizinch faslida quyidagi misralar uchraydi”:³

*For all was blank, and bleak, and grey; (4+5)
It was not night, it was not day; (4+4)
It was not ewen dungeon-light, (5+4)
So hateful to my heavy sight, (4+4)
But vacancy absorbing space, (5+3)
And fixedness –without place; (5+4)
There were no stars, no earth, no time (6+6)
No check, no change, no good, no crime, (2+2+3+3)
But silence, and starless beath; (4+5)
Which neither was of life nor beath; (6+5)*

² Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi.- T., 2012. 206 b

³ Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari.- T., 1983. 170 b

A sea of stagnant idleness, (6+3)

Blind boundless, mute and motionless! (4+7)

Yana bir misol sifatida ushbu misralar shoir Muhammad Ali tarjimasida quyidagicha berilgan:

*Bari, bari ro`yodan hira, (4+5)
Nursiz, rangsiz oftoda tiyra (4+5)
G`ira-shira soyalarga ga`rq (4+5)
Nedir-ajab, etolmadim farq- (4+5)
Saharmi, shom, zindonning manfur (4+5)
Yorug`imi- ko`zim qilgan ko`r? (4+5)
Bu – qorong`u zim-ziyo zulmat (4+5)
Masofada bilmaguncha had (4+5)
Chohi adam edi, tubsiz qa`r: (5+3)⁴*

Ushbu misolda ham yuqoridagi singari holatni kuzatishimiz mumkin, bunday asliyat va tarjima orasida bo`g`inlar soni tubdan faqr qilgan. Lekin shuni ta`kidlab o`tish lozimki, ushbu mashhur asarlar o`z davrining yulduzları ijodidan hisoblangan bo`lib bizning yetuk tarjimonimiz ushbu asarni mahorat bilan tarjima qilib unda she`r mazmuni, ritmi hamda bog`in va ohangdorlikni saqlab qolgan. Asliyatda quyosh darajasidagi ushbu she`r tarjima natijasida oy darajasiga tushib ketmagan deb ayta olsak bo`ladi.

Ikkita Yevropa va Turkiy tillar she`riy tuzilishi qiyosiy o`rgatish ular o`rtasida nafaqat she`riy atamalar, balki she`riy tizimlarda katta farq borligini ko`rsatadi. Hali tarjima nazariyasida ingliz yambi, xoreyi yoki doktili o`zbek tiliga qaysi vaznda tarjimasi qilish mumkinligi haqida aniq ma`lumotlar yo`q, bori ham yetarli emas.

Odilova G. ning badiiy tarjima asoslari nomli qo`llanmasida ta`kidlanishicha:

“Ingliz she`rlarini o`zbek tiliga o`rganish bo`yicha tavsiyalar to`liq ishlab chiqilmagan.”⁵

O`zbek adabiyotida badiiy tarjimachilik ilk yorqin misollar Xamza Xakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho`lpon, Hamid Olimjon, G`ofur G`ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Zulfiya va boshqa ko`plab ijod ahllarining qalamiga mansubdir. “G`aybullा Salomov O`zbekistondagi tarjima nazariyasi asoslari ustida ilmiy faoliyat olib bordi. U tarjimada milliy xususiyatlarini aks ettirishga katta e`tibor bergen va frazeologizmlarni tarjimada ifodalash yo`llari, she`riy tarjimalarning o`ziga xosliklari ustida ishlagan” deya

⁴ Azam O. tunes of Azia.- T., 2004. 21 b

⁵ Odilova G. Badiiy tarjima asoslari.T.Mumtoz so`z. 2011. 133b

ta`kidlab o`tgan edi G`ofurov I.⁶

Endi o`zbek tilida yozilgan biror she`rni olib, dastlabki tahlildan o`tkazamiz. O`zbek tili she`riyatida turoq, bayt, rukn, aruz, misra, qofiya, bo`g`in, va shu kabi atamalar keng qo`llaniladi.

O`zbek aruzi arab-fors aruzidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Aruz fonetikasi – hijolar-bo`g`inlarning tuzilishi va turlari, asl ruknlarning hosil qilinishi va xilma-xil ko`rinishlari, bahrning tashkil topishi, zihoflar–o`zgarishlarning xususiyatlari va turlari arab, fors-tojik aruzi kabi o`zbek aruziga xosdir.

Quyida Cho`lponning “Go`zal“ she`rning Obid Azam tomonidan tarjimada berilishi va undagi bog`inlar orasidagi farqli jihatlarni ko`rib chiqsak:

Asliyat:

Qorong`u kechada ko`kka ko`z tikib, (6+5)

Eng yorug` yulduzdan seni so`rayman.(6+5)

Ul yulduz uyalib boshini egib (6+5)

Ayta-dur men uni tushda ko`raman (6+5)

Tushimda ko`raman shunchalar go`zal (6+5)

Oydanda go`zaldir, kundanda go`zal (6+5)

Endi esa tarjimada berilishiga nazar solsak :

I look at sky at night in darks, (5+3)

And ask you from the brightest star: (5+4)

That star inclining head remarks: (5+4)

“I always dream of her afar. (5+4)

In my dream she pretty thus – (3+3)

Finer than the Moon and us !”(3+ 5) ⁷

Ushbu she`rni tarjima va asliyatdagi ko`rinishiga nazar solsak, u bo`g`inlar soni asliyat va tarjimadan bir-biridan ikkita bo`g`in kamligi bilan farqlanadi. Shunga ko`ra tarjima haqida shuni ham aytib o`tishimiz lozimki, tarjima kamdan kam hollardagina asliyat bilan bir xil bo`ladi, tarjimonlarimizning birinchi va asosiy vazifasi ikki til orasidagi she`riy tizimlarga rioya qilgan holda she`riy asardagi mazmunni saqlab qolishdan iboratdir. Bu erkin she`rning tarjimada berilishidan bir na`munamiz edi.

Yuqorida o`zbek aruzi haqida ma`lumot bergen edik, keling keyingi misolimizni necha ming yillar davomida badiiy adabiyotimizning she`riy tizimlarida o`ziga xos o`rin va mavqega ega bo`lgan aruz vazniga ham misol keltirib o`tsak:

“Masalan, Rahimjon Karimov o`z tadqiqotlarida Boburning mashg`ur g`azali

⁶ Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar . T. 1972. 86b

⁷ Azam O. Tunes of Azia. - T., 2004. 3 b

matlasini quyidagicha tahlil qiladi.”⁸

Asliyat:

Charxning men ko `rmagan jabru-jafosi qoldimu? (6+8)

Hasta ko `nglim chekmagan dardu balosi qoldimu? (7+7)

Tarjimada berilishi:

There is no violence injury of fortune that I have not experienced; (15+9)

This broken heart has endured them all. Alas! (11+2)

Is there one left that, I have not encountered? (7+8)

Endi esa asliyat va tarjimadagi bog`inlardagi farqlar, balki boshqa kamchiliklarni ham qisqacha tahlil qilib o`tsak:

Barcha tarjimonlardagi asosiy ish tarjima natijasida matn o`zligini yo`qmasligi uchun bor kuch va iste`dodini ishga solishdan iborat, biroq bu tarjimada shuni kuzatishimiz mumkinki, tarjimon mazmunni saqlab qolishga harakat qilgan va ba`zi kamchiliklarga ham yo`l qo`ygan. Masalan, bo`g`inlar soni jihatdan asliyat va tarjimada tubdan farq qiladi, yana qatorlar soni ham ancha o`zgargan. Tarjimon mazmunni saqlashga harakat qilganu biroq she`riy tizim qoidalarini biroz unutgan deya tahlil qilishimiz mumkin.

Keling yana bir misol orqali ushbu vaznning asliyat va tarjimada berilishini tahlil qilsak:

“O`pay” radifli ruboiy tarjimasiga ham ohang va jarangdorlik jihatidan sharqona uslubning g`arbcha janri deya baho berish mumkin: “⁹

Dedim zaqoning tutib, saqog`ingni o`pay, (7+6)

Ko`z qoshingga surtibon qabog`ingni o`pay, (7+6)

Guldek yuzung islabon, dudog`ingni o`pay. (7+6)

Yo`q,yo`q, yo`q, agar desang ayog`ingni o`pay¹⁰(7+6)

Inglizcha tarjimasi:

I said holding your chin your cheeks I kiss, (9+6)

Licking your eyes with eyelids your brows I kiss, (10+5)

Smelling your rosy cheeks your lips I kiss, (7+5)

If you say: No, No, No, your foot I kiss (7+6)

Ushbu ruboiyni tahlil qilar ekanmiz, tarjima shu darajada aniq va tushunarli chiqqanki, inglizcha matndayoq Navoiy ohangi sezilib turadi. Tarjimada ruboiy ohangi to`liq saqlab qoltingan va inglizcha bo`yoq dorlikdan holi. Ingliz poeziyayasida aruz vazni bo`lmaganidek o`zbek she`riyatida ham yamb yo`q.

⁸ Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. Toshkent: Mumtoz so`z 2011, 123-b

⁹ Baqoeva M. Angliya va AQSH adabiyotidan o`zbek tiliga she`riy tarjimava qiyosiy she`rshunoslik muammolari. T. 2004. 119b

¹⁰ Navoiy A. G`ariyb us-sig`ar. MAT.20 tomlik. T. Fan, 1988. 586b

Bunday olib qaraganda yamb bilan aruz o`rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bir – biridan yiroq bo`lgan ikki she`riy sistema va an`anani “omuxta” qilishda tarjimon jur`at bilan qalam surgan. U ingliz yambiga asl nushadagi ixchamlik va emotSIONallikni saqlay oladigan, yangi ohang beruvchi darifli qofiya kiritgan. Natijada esa qandaydir uchinchi ona tili va bo`lak tildagi she`riy unsurlar omuxtasidan iborat nazmiy mushtaraklik vujudga kelgan.

Ikkita yevropa va turkiy tillar she`riy tuzilishi qiyosiy o`rganish ular o`rtasida nafaqat she`riy atamalar, balki she`riy tizimlarda katta farq borligini ko`rsatadi. Hali tarjima nazariyasida ingliz yambi, xoreyi yoki doktili o`zbek tiliga qaysi vaznda tarjima qilinishi mumkinligi haqida aniq ma`lumotlar yo`q, bori ham yetarli emas. Ingliz she`rlarini o`zbek tiliga tarjima qilish bo`yicha tavsiyalar to`liq ishlab chiqilmagan. Bu degani ingliz tilidan o`zbek tiliga yoki o`zbek tilidan ingliz tiliga she`rlar tarjima qilinmayapti degan xulosaga kelmasligimiz lozim.

Avvalo shuni ta`kidlashimiz joizki, Vatanimiz mustaqilligi sharofati bilan ijod ahliga, jumladan tarjimonlarga ko`rsatilayotgan yuksak e`tibor tufayli yurtimizda xorijiy tillardan bevosita ona tilimizga va ona tilimizdan bevosita xorijiy tillarga tarjima qila oladigan iste`dod egalari bo`y ko`rsata boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. G`ofurov I. Tarjima nazariysi.- T., 2012. 19 b.
2. Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariysi.- T., 2012. 206 b.
3. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari.- T., 1983. 170 b.
4. Azam O. tunes of Azia.- T., 2004. 21 b.
5. Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. T. Mumtoz so`z. 2011. 133b
6. Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. T. 1972. 86b
7. Azam O. Tunes of Azia. - T., 2004. 3 b.
8. Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. Toshkent: Mumtoz so`z 2011, 123b.
9. Baqoeva M. Angliya va AQSH adabiyotidan o`zbek tiliga she`riy tarjima va qiyosiy she`rshunoslik muammolari. T. 2004. 119b.
10. Navoiy A. G`ariyib us-sig`ar. MAT. 20 tomlik. T. Fan, 1988. 586 b.